

2019 yil 1-dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 6670 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4757 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6150 ta (54,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 17367 tani tashkil etgan.

Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-dekabr holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yilning 1-dekabr holatiga ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 17367 taga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 54,8 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 29,0 % savdo, 16,5 % sanoat, 8,7 % qurilish, 10,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,3 % tashish va saqlash, 1,1 % axborot va aloqa, 1,5 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 22,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.12.2019 yil	
	01.12.2018 yil	01.12.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	11217	17367	154,8	100
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1279	1793	140,2	10,3
Sanoat	1804	2870	159,1	16,5
Qurilish	1037	1510	145,6	8,7
Savdo	2212	5028	227,3	29,0
Tashish va saqlash	456	565	123,9	3,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	856	1246	145,6	7,2
Axborot va aloqa	161	199	123,6	1,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	227	262	115,4	1,5
Boshqa turlari	3185	3894	122,3	22,4

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (4475 ta), Karmana (2785 ta), Qiziltepa (2110 ta), Xatirchi (2041 ta) va Navbahor (1627 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Uchquduq (773 ta), Konimex (587 ta) hamda Tomdi (298 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 16580 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5483 taga (49,4 %) o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (4080 ta), Karmana (2659 ta), Qiziltepa (2078 ta), Xatirchi (1987 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Uchquduq (745 ta), Konimex (576 ta) hamda Tomdi (296 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yil yanvar-noyabr oylarida 6670 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 3,5 martaga ko'pdir.


Yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (1291 ta), Xatirchi (983 ta), Qiziltepa (945 ta), Karmana (883 ta), Navbahor (638 ta) Uchquduq (411 ta) va Nurota (386 ta) tumanlari hamda Zarafshon shahar (755 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Tomdi (121 ta) va Konimex (257 ta) tumanlari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangidan tashkil etilgan, eng ko'pi savdo (2972 ta), sanoat (1306 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (627 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (451 ta), qurilish (367 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (47 ta), axborot va aloqa (78 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

**2019 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yil 1-oktabr holatiga 14479 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4355 ta, oilaviy korxonalar – 2814 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 7085 ta va boshqalar 225 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019 yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 201 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 101 taga yoki 2,0 martaga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2019 yil 1-dekabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 201 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Navoiy shahri (72 ta), Karmana (49 ta), Nurota (18 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Nisbatan kamlari Uchquduq va Navbahor (8 tadan), Tomdi (7 ta) hamda Konimex (6 ta) tumanlariga to`g`ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 125 tasi qo'shma korxonalar, 76 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda


	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Navoiy viloyati	201	125	76
Navoiy shahar	72	50	22
Zarafshon shahar	13	9	4
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	6	4	2
Qiziltepa	11	7	4
Navbahor	8	6	2
Karmana	49	30	19
Nurota	18	10	8
Tomdi	7	6	1
Uchquduq	8	1	7
Xatirchi	9	2	7

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 94 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 56 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Navoiy shahar (29 ta yoki jamidagi ulushi 30,9 %), Karmana tumani (23 ta yoki 24,5 %) va Nurota tumani (10 ta yoki 10,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Uchquduq tumani (7 ta yoki 7,4 %), Zarafshon shahar (6 ta yoki 6,4 %), Tomdi va Xatirchi tumanlari (5 tadan yoki 5,3 %), Qiziltepa (4 ta yoki 4,3 %), Navbahor tumani (3 ta yoki 3,2 %), va Konimex tumani (2 ta yoki 2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.

**2019 yilning yanvar-noyabr oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**




Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 18 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 18 ta, Eron Islom Respublikasi - 16 ta, Hindiston Respublikasi – 8 ta, Turkiya Respublikasi - 5 ta, Qozog'iston Respublikasi - 5 ta va Koreya Respublikasi - 4 ta, Amerika Qo'shma Shtatlari – 3 ta, korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019 yil yanvar-noyabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (60 ta yoki 63,8 %), savdo (4 ta yoki 4,3 %), qurilish (6 ta yoki 6,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (12 ta yoki 12,8 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Eng kamlari esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2 ta yoki 2,1 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (1 ta yoki 1,1 %), hamda tashish va saqlashda (1 ta yoki 1,1 %) tashkil etgan.

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yil 1-dekabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 14409 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1-dekabr holatiga qaraganda 59,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3544 tasi (24,6 %) Navoiy shahri, 2405 tasi (16,7 %) Karmana, 1838 tasi (12,8 %) Qiziltepa hamda 1674 tasi (11,6 %) Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jami ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14409 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4836 tasi (33,6 %) - savdo, 2720 tasi (18,9 %) - sanoat, 1418 tasi (9,8 %) - qurilish, 1692 tasi (11,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1155 tasi (8,0 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 173 tasi (1,2 %) – axborot va aloqa sohasi, 198 tasi (1,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 522 tasi (3,6 %) - tashish va saqlash hissalariga to'g'ri keladi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni to'g'risida
MA'LUMOT**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)
birlikda

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	01.12.2019 y.	01.12.2019 y.	2019 yil yanvar-noyabr
Navoiy viloyati	15134	14409	6519
Navoiy sh.	3901	3544	1239
Zarafshon sh.	1257	1206	740
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	459	448	249
Qiziltepa	1863	1838	929
Navbahor	1426	1377	625
Karmana	2527	2405	865
Nurota	1094	1062	380
Tomdi	223	222	118
Uchquduq	661	633	402
Xatirchi	1723	1674	972


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019 yil yanvar-noyabr oylarida 6519 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,8 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahar (1239 ta), Xatirchi (972 ta), Qiziltepa (929 ta) va Karmana tumanlari (865 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Nurota (380 ta), Konimex (249) hamda Tomdi (118 ta) tashkil etilgan.

**2019 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2971 ta), sanoatda (1304 ta), qurilishda (366 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (625 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (143 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (46 ta) hamda axborot va aloqada (78 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019 yilning 1-dekabr holatiga 2865 tani tashkil etib, ulardan 2814 tasi yoki 98,2 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 4,0 martaga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalarning soni to'g'risida ma'lumot, birlikda

	01.12.2019 y.		2019 yil yanvar-noyabr
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Navoiy viloyati	2865	2814	2173
Navoiy sh.	481	460	339
Zarafshon sh.	134	134	127
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	137	135	119
Qiziltepa	274	273	248
Navbahor	524	519	407
Karmana	590	579	380
Nurota	208	206	104
Tomdi	31	31	27
Uchquduq	19	17	18
Xatirchi	467	460	404

Oilaviy korxonalar soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 24,7 % yoki 695 tasi sanoat, 38,8 % yoki 1091 tasi savdo, 12,0 % yoki 338 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 14,3 % yoki 401 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,5 % yoki 43 tasi qurilish, 0,8 % yoki 22 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 25 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,8 % yoki 22 tasi axborot va aloqa hamda 6,2 % yoki 177 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda savdoda, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Navoiy viloyati	2173	100
Navoiy sh.	339	15,6
Zarafshon sh.	127	5,8
<i>tumanlar:</i>		
Konimex	119	5,5
Qiziltepa	248	11,4
Navbahor	407	18,7
Karmana	380	17,5
Nurota	104	4,8
Tomdi	27	1,3
Uchquduq	18	0,8
Xatirchi	404	18,6

2019 yil yanvar-noyabr oylarida 2173 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 9,7 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Navoiy shahrida (339 ta), Xatirchi (404 ta), Navbahor (407 ta) va Karmana tumanlari (380 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Nurota (104 ta), Tomdi (27 ta) hamda Uchquduq (18 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019 yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 26,3 % yoki 571 tasi sanoat, 44,9 % yoki 975 tasi savdo, 8,9 % yoki 194 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 11,8 % yoki 256 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 24 tasi qurilish, 0,5 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,8 % yoki 17 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 16 tasi axborot va aloqa hamda 5,0 % yoki 108 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

KTYADR – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risida”gi 274-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9-fevraldagi 66-son qaroriga asosan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi) organlari tomonidan berilgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.



Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-84-56